



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVSHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA NOAN'ANAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Nasrulayeva Yulduz Farxadovna

Osiyo xalqaro universiteti
70110501 –Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10279362>

Annatsiya: Noan'anaviy metodlar – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada matematika darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan noan'anaviy metodlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: matematika, metodika, noan'anaviy metodlar, boshlang'ich sinf, matematik savodxonlik, "kubik", "klaster", "son qatnashgan maqollar aytishuvi" "Kichik guruhlarda ishlash", "Matematik kokteyl", "Lift" metodlari.

Noan'anaviy metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. noan'anaviy ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati mavjudligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Noan'anaviy metodlardan foydalanish matematikadan misol va masalalarni yechish jarayonida tafakkurning ijodiy va amaliy qirralari rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Kruteskiy, E. G'oziev, G'.Shoumarov, O. Roziqov, B. Adizov ta'kidlashlaricha, - bu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanadi. A. M. Matyushkin, I. S. Averina, G. D. Chistyakovalar o'quvchi shaxsining intellektual qobiliyatini tashkil qilish masalalari ustida izlanish olib borib, ularning har bir rivojlanish bosqichi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda qaralishi lozimligini uqtiradilar. R.Ibragimov, O. Roziqov, V.Karimova, E.G'oziev, G'.Shoumarov, Z.Nishonova, B. Qodirovlar ham shaxsning intellektual qobiliyatini rivojlantirishni uning aqliy qobiliyati, bilish faoliyati, mustaqil fikr yuritish muammolariga bog'lab talqin etadilar.





Boshlang'ich sinflarga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun noannanaviy interfaol usullar ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi rivojlantirish va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishish kerak. «Metodika» grekcha so'z bo'lib, "yo'l, usul" demakdir. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanish ahamiyati yoritiladi. "kubik", "klaster", "son qatnashgan maqollar aytishuvi" "Kichik guruhlarda ishlash", "Matematik kokteyl", "Lift" metodlari.

Kubik metodi. Kubik metodidan darsni mustahkamlash vaqtida foydalansa yaxshi natija beradi. 1-qadam: o'quvchilarga mavzu o'tilgandan so'ng unga biror tushuncha shakllanadi. Shakllangan tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi. 1. Tasvirlang; 2. Taqqoslang; 3. O'xshating; 4. Tahlil qiling; 5. Ishlating; 6. Foydali va zararli tomonlari **Son qatnashgan maqollar aytishuvi** Maqsad: Son qatnashgan maqollar orqali O'zbek xalq maqollari degan boy merosimizdan foydalangan holda o'quvchilarni milliy g'urur, axloqiy his tuyg'ularni hakllantirish, ma'naviy tuyg'ularini rivojlantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, Vatan va Vatanga muhabbat tushunchalarini o'quvchilar ongiga sindirish. ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish va sonning dunyodagi roli haqida tushuncha berib, ko'nikma va malaka hosil qilish.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi. Kichik guruhlarda ishlash orqali o'rganish - ma'lum muammoning yechimini topishga va o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan darsdagi ijodiy hamkorlikdagi ish. Bosqichlari: guruhlarga bo'lish, muammoni guruhlarda muhokama qilish, muammoning yechimlari taqdimoti, xulosalash. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

"Matematik kokteyl" metodi. Bu metoddan boshlang'ich ta'limning barcha dars jarayonlarida qo'llash mumkin. Ushbu metodda guruhlarga fanga oid qiziqarli va mantiqiy savollar beriladi. Savollar o'quvchini mantiqiy fikrlashga undaydigan, qiziqarli matematikaga oid bo'lishi zarur. To'g'ri javob bergan o'quvchiga o'qituvchi tomonidan sharbat beriladi. Bu sharbatni biror mevdan





tayyorlash mumkin. Bu esa o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini va matematik savodxonligini oshiradi. "Lift" metodi. Bu metodda sinf guruhlariga ajratilib yangi mavzu bo'yicha guruhlariga tezkor savollar beriladi. Bunda barcha guruh a'zolari qatnashadi. Guruh a'zolaridan biri savolga to'g'ri javob bersa, "lift" bir pog'ona tepaga ko'tariladi. Agar noto'g'ri javob bersa "lift" joyidan siljmaydi. Qaysi guruh "lift" dan tez yuqori ko'tarilib olsa, g'olib bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin, qayd etilgan maqsadlardan umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, intellektual qobiliyatini rivojlantirishga xzmat qiladi.

O'quvchilar matematika darslarida ko'rgazmali qurollar va jadvallardan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi. O'quvchilar matematikadan misol va masalalar yechish orqali ularda sabr qanoatga, mehnatga, mulohazali, og'ir-vazmin kabi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saparova.G. "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali". 2023 yil.
2. "Prospects of development of science and education proceedings of first conference". 2023 yil.
3. Isamitdinov.S. "Ta'lim va innovatsion usullar" uslubiy tavsiyanoma. Toshkent. RTM, 2005 yil.
4. Sobirov B. "Ta'lim tizimi takomillashmoqda" // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Toshkent, 2008 yil.
5. Nasurlayeva Yulduz Farxadovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda noan'anaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION. 09-June 2023.

